

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA TARIX
FALSAFASINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR
BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHGA OID METODIK ISHLANMALAR

Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishga oid metodik ishlanmalar bayon etilgan. Shuningdek, bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishda mantiqiy fikrlash hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Tarix falsafasi, zamonaviy konsepsiya, bilim, metodik ishlanma, keys-stady, swot tahlil metodi.

Аннотация. В данной статье описываются методологические разработки, связанные с формированием знаний о современных концепциях философии истории у будущих учителей истории. Также представлены некоторые соображения о логическом мышлении в формировании знаний о современных концепциях философии истории у будущих учителей истории.

Ключевые слова: философия истории, современная концепция, знания, методологические разработки, тематическое исследование, метод SWOT-анализа.

Abstract. This article describes methodological developments related to the development of knowledge about modern concepts of the philosophy of history among future history teachers. Also, some thoughts on logical thinking in the development of knowledge about modern concepts of the philosophy of history among future history teachers are presented.

Keywords. Philosophy of history, modern concept, knowledge, methodological development, case study, SWOT analysis method.





Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishda mantiqiy fikrlashni shakllantirish talab etadi. Mazkur vazifani hal etishda vaziyatli tahlil (keys-stadi) strategiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Keys- stadi” texnologiyasi (ingl. “case” – chemodan, “study” – muammoli vaziyat) – talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul echimni topish ko'nikmalarini shakllantiruvchi texnologiya; real vaziyatlarni bayon qilishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi. O'quv keyslari muammoni hal qilishga “har tomonlama tahliliy yondashishni taqozo qiladi” (“trebuyut vsestoronnego analiticheskogo podxoda”). Ta'lim jarayonida o'quv keyslaridan foydalanishda keysni echish muhim jarayon sanaladi. Zero, “keysni echish – taqdim etilgan vaziyatni tahlil qilish va uning optimal echimini topish” asosiy jarayon bo'lib, u talabalarda “tahlil ko'nikmalari, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, nazariya-amaliyot birligini ta'minlash, muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyon qilish, qarorlar qabul qilish, uning oqibatlariga doir fikrlarni taqdim etish, noaniqlik mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirish” ga xizmat qiladi.

1-keys bayoni. A. Temur hayoti va faoliyatini o'rganish jarayonida qiziq bir dalilga duch kelish mumkin. Tarixchi Sharafuddin Ali YAzdiyning “Zafarnoma” asarida keltirilishicha, A. Temur hukmronligi davrida ham harbiy paradlar tashkil etib turilgan. Asarda harbiy parad jarayoni quyidagicha tasvirlanadi: “Temur shohona bezatilgan balandlikda turib, olti yuzdan iborat qo'shin birlashmalarining paradini qabul qilardi. Bu qo'shinlarning hammasi boshdan-oyog'igacha temir ust-bosh kiyib, bayroq ko'tarib, muzika sadolari ostida bir xilda shaxdam qadam tashlab borardi.

Temur turgan joyga yaqinlashgach, harbiy qismlar boshliqlari o'z bo'linmalaridan ajralib, Temurga yaqin kelib unga ta'zim qilar; maqtov so'zlari – madhi-sano aytib, o'zini va qo'l ostidagi askarlarni amirning “xayrli” ishiga sodiq ekanliklarini bildirardi. SHunisi ham borki, har bir

harbiy qismning kiyimi turlicha, masalan, qizil yoki oq, ko'k yoki jigarrang va hokazo ranglarda edi. Ayrim qismlarning kiyimi qaysi rangda bo'lsa, barcha qurollari – tirkash, kamar, nayza, o'q uzuvchi qurollar – sar va hokazolarning qinlari ham o'sha rangda edi”.

Keys topshirig'i. Yuqorida keltirilgan matn bilan tanishib chiqib, sohibqiron Amir Temur davrida tashkil etilgan harbiy paradning zamonaviy harbiy parad bilan o'zaro bog'liq jihatlarini aniqlang.

O'qituvchining javobi. Sohibqiron Amir Temur davrida tashkil etilgan harbiy paradning zamonaviy harbiy parad bilan o'zaro bog'liq jihatlar quyidagilardir: Amir Temur hukmronligi davrida harbiy paradlarni tashkil etish an'ana bo'lgan; parad chog'ida harbiy qismlarning boshliqlari o'z qo'mondonlariga qo'shinining marosimda hozir bo'lganligi to'g'risida hisob berganlar; qo'mondonga madhu-sano aytish an'anasi (bugungi kundagi “Generalga sog'lik-salomatlik tilaymiz”, “Vatanimga xizmat qilaman” tarzida bildiriluvchi tilaklar) o'sha davrda ham mavjud bo'lgan; qo'shin harbiy paradda o'zining marosim libosida ishtirok etgan; qo'shin tarkibiga kiruvchi har bir bo'linma o'zigagina xos bo'lgan libosga ega bo'lgan; harbiy paradda har bir bo'linma o'z bayroqlari bilan ishtirok etib, belgilangan maydon bo'yicha musiqa sadolari ostida shaxdam qadam tashlab o'tgan.

2-keys bayoni. A.Temur shaxsining ulug'lanishining asosiy sabablardan biri uning qo'shinga va navkarlarga ko'rsatgan cheksiz hurmatidir. Bu xususida A.Temur quyidagi fikrlarni bildiradi: “Do'st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo'lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar. O'zlarini ma'raka-maydon, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar. Agar g'anim sipohidan biror odam o'z valine'matiga sidqidildan xizmat qilib urush kunlarida menga qarshi qilich ko'targan bo'lsa ham, unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko'rsatdim, qoshimga (panoh istab) kelganda uni qadrlab, haqiqat bilan xizmat qilishiga ishondim”.



Keys topshirig'i. Sohibqiron Amir Temurning yuqorida keltirilgan fikrlariga tayanib, uning qo'shin va navkarlarga munosabatida qanday yo'nalishlar ustuvor bo'lganligini ko'rsating.

O'qituvchining echimi. A.Temur harbiy merosida uning qo'shin va navkarlarga munosabatida quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lgan: qo'shin va navkarlarga ko'rsatilgan hurmat; jangda mardlik ko'rsatgan navkarlarni rag'batlantirish; kekxa sipohiylarni ulug'lash; navkarlar xatti- harakatlarining oqibatlarini

tahlil qilish; jang natijalarini kafolatlovchi g'oyalar; g'anim askarlari va ularning xatti-harakatlarini baholash.

3-keys bayoni. Amir Temur o'z qo'shiniga etakchilik qiluvchi shaxslarni o'ta talabchanlik bilan tanlagan va jangu jadallarda ular bilan maslahatlashgan holda ish ko'rgan. SHu bois qo'shinga etakchilik qilgan uch yuz o'n uch amirlarning barchasi harbiy mahoratda tengsiz, aqlu-zakovatda benazir shaxslar bo'lgan.

Keys topshirig'i. "Temur tuzuklari" asari bilan tanishish asosida yuqoridagi fikrni tasdiqlovchi ma'lumotlar keltirilgan o'rinni toping.

O'qituvchining yechimi. "Temur tuzuklari" asarida keltirilgan ushbu ma'lumotlar yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi: "Uch yuz o'n uch amirlarimning barisi aql-hush egalari, bazmu razm sherlari, mahoratli sarkarda, lashkar to'pini buzib, uni mahlub etuvchi kishilar edi. Jangning sir-asrorini, g'anim askarlarini sindirish yo'lini bilgan, urush qiziganda o'zini yo'qotmasdan, qo'l-oyog'i bo'shashmasdan, lashkar favjlarini jangga boshlay oladigan, agar qo'shin safiga rahna tushsa, uni tezda tuzata oladigan kishigina amirlik va hukmronlikka loyiq hisoblanadi. Amirlikdan qaysi biri o'zi qiziqib ish so'rar ekan, unga buyursa bo'lur"

Ijtimoiy-gumanitar fanlar muammolarini o'rganishda va tahlil qilishda, bo'lajak kadrlarda analitik tafakkurni o'stirishda SWOT tahlil metodini qo'llash yaxshi natija beradi. Ushbu metodning lug'aviy ma'nosi quyidagicha:

- Strong – kuchli,

- Weakness – kuchsiz,
- Opportunities – imkoniyatlar,
- Threats – xavflar.

Ya'ni muayyan ob'yekt (vaziyat, tadqiqotga nisbatan ilmiy yangilik)ning kuchli tomonlari – ayni vaqtda mavjud ustunliklari; shu kuchli tomonlarni inkor etuvchi kuchsiz jihatlari; yangilikni amalga oshirgandan keyin paydo bo'ladigan imkoniyatlar va shu imkoniyatlar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar prognoz qilinadi.

SWOT - tahlil o'rganilayotgan ob'yektning eng dolzarb muammolarini topish, uning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdid, xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida olib boriladi. Bundan tashqari kuchli tomonlarni mustahkamlash, kuchsiz jihatlarni kamaytirish, imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularni kengaytirish va tahdidlarga qarshi choralarni ko'rishga uchun tegishli takliflar ishlab chiqishda qo'l keladi.

1-rasm

Metodning rasmiylashtirilish jadvali quyidagicha:

Kuchli jihatlar	Kuchsiz jihatlar
1.	1.
2.	2.
3.	3.
...	...
Imkoniyatlar	Havf-xatarlar
1.	1.
2.	2.
3.	3.
...	...

Metodni qo'llashning muhim shartlari:

1. Obyektning muhim elementlarini ajratib olish SWOT-tahlilda ko'riladigan asosiy elementlar aniqlanilib, mazkur elementlarning har biri uchun alohida baholash me'zonlari ishlab chiqiladi.



2. SWOT-tahlil uchun tanlab olingan elementlarni guruhlariga ajratish:
(Masalan...).

3. Har bir elementni alohida SWOT-tahlil qilish

4. O'rganilayotgan ob'yektni to'laligicha SWOT-tahlil qilish

5. Aniqlangan kuchli jihatlar bilan imkoniyatlar orasidagi bog'liqlikni topish yoki ularning o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlash, kuchsiz jixatlar (muammolar) bilan xavf-xatarlarning o'zaro bog'liq jixatlarini topish va tegishli xulosa berish.

- Kuchli va kuchsiz jihatlarni, imkoniyat va xavflarni ob'yektiv (xolis) umumqabul qilingan mezonlar asosida baholash.

- Baholash uchun yig'ilgan ma'lumotlarni ob'yektiv va realligiga ishonch xosil qilish.

- kuchli yoki kuchsiz jixatlarni aniqlashda, imkoniyatlar va xavf-xatarlar darajasini belgilashda boshqa tegishli tahlil metodlaridan foydalanilishi mumkin.

O'quv jarayonida SWOT-tahlilni qo'llash analitik tafakkurni rivojlantirish yaxshi samara beradi va amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladi. Biz ushbu vazifani magistratura uchun "Tarix falsafasi va metodologiyasi" fani doirasida "Tarix falsafasiga doir zamonaviy konsepsiyalar" mavzusining asosiy g'oyalarini mustahkamlashga tatbiq etib ko'ramiz. SWOT-tahlilni qo'llash uchun nafar talabani 10 tadan 3 ta guruhga bo'lib olamiz. Va namuna uchun yuqoridagi 3 ta tezisni tanlov asosida kichik guruhlariga taqdim etamiz. Talabalar SWOT-tahlil jadvali asosida o'zlarining xulosalari (tezislari)ni himoya qilishlari lozim. Belgilangan vaqt davomida talabalar jamoaviy javoblarini tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik / O'quv qo'l. Usmonbayeva M., Hakimova M., Innazarov M., Nabiyeu G'. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2020. – B. 69

2. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Ёзма манбалар маълумоти асосида. –Тошкент: Фан, 1994. – Б. 33; Мамажонов М. Миллий ҳарбий анъаналар ва уларнинг тарбиявий имкониятлари / Методик тавсиянома. – Тошкент: ЎзПФТИ, 2007. – Б. 12

3. Амир Темур ўғитлари / Тўплаб нашрга тайёрловчилар Б. Аҳмедов ва А. Аминов. – Тошкент: Наврўз, 1992. – Б. 11